www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

Valentin Gayui – ko‘zi ojizlar ta’lim-tarbiyasining asoschisi

Zumradxon Astanova Toxirovna
Andijon viloyati Asaka tumani 22-BMSM o`qituvchisi, tadqiqotchi
zumradastanova@gmail.com

Annotatsiya:Ushbu maqolada Valentin Gayuining ilmiy pedagogik faoliyatini targ‘ib qilish to‘g‘risida fikrlar bayon qilinadi.
Kalit so‘zlar:Ko‘zi ojiz, Unsial, Tiflometod, Valentin Gayui, Pedagog, Brayl yozuvi.

Kirish: Insonlarning kundalik hayotida yuzaga kelgan muammolarini hal etish borasida har bir qilingan xatti-harakatlar, izlanishlar natijasida yangi bir kashfiyot, yangi bir bilim topilaveradi. Kashfiyotlar zamirida ko‘plab ixtirolar qilinadi. Oddiygina kichik bir ixtiro ham insoniyat hayotida yangicha bir o‘zgarish, yangicha bir burilish yasaydi. shu tariqa odamlarning turmush tarzi tobora yengillashib, taraqqiy etib boraveradi.

Odatda Inson o‘zi bilmagan narsalarni bilishga, noma'lum hodisalarni aniqlashtirishga intiladi va urinib ko‘radi. Urinishlar ba'zan muvaffaqiyat qozonadi, ba'zan esa zoye ketadi. Muvaffaqiyatsiz urinish ham boshqa bir muvaffaqiyatning sababchisi bo‘lishi mumkin.

Asrlar davomida ko‘plab olimu-fuzalolar, allomayu-daholar bizga benazir ijod namunalari, mislsiz kashfiyotlar qoldirib ketdilar. Bunday ulug zotlarni o‘rganar ekanmiz, izlarining davomchilari sifatida ularning hayoti va ilmiy faoliyatlariga katta qiziqish bilan yondoshamiz, andoza olamiz, mashaqqatli mehnatlarini qadrlaymiz.

Tatqiqotimiz ko‘zi ojiz insonlarning ta'lim-tarbiyasini yanada rivojlantirish, mavjud muammolarini bartaraf qilish doirasida chuqur izlanishlarni olib borar ekan, o‘zining nazariy-ilmiy, tarixiy, metodologik jarayonlarini quyidagicha ko‘rib chiqadi.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi:

Davlatimiz rahbari ko‘zi ojiz yoshlarning ta’lim-tarbiyasiga ham alohida e’tibor qaratib, bu borada bir nechta qarorlar imzoladilar.

Jumladan, 18.04.2022 yildagi “Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta’lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-209-sonli qarorida: “Ichki ishlar vazirligi hamda Xalq ta’limi vazirligining ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni Ichki ishlar vazirligiga biriktirish hamda ularni “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari (keyingi o‘rinlarda — “Nurli maskan” maktablari) deb nomlash to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Belgilansinki, Ichki ishlar vazirligi “Nurli maskan” maktablariga mas’ullarni biriktirgan holda:

Sifatli ta’lim va tarbiya berishga, ularning maishiy sharoitlarini yaxshilashga, shuningdek, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda intellektual, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga;

O‘quvchilarning jismoniy imkoniyatidan kelib chiqqan holda, ularni sog‘lom, ma’nan yetuk inson qilib tarbiyalashga hamda dunyoqarashini shakllantirish, sport turlariga qiziqtirish va jalb etishga;

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

O‘quvchilarning vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantiruvchi madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishga doimiy ravishda ko‘maklashadi.”[1]

Shu kabi qonun va qarorlarda ko‘zda tutilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘tmishda odamlar ko‘zi ojiz insonlarga faqir kishilar kabi munosabatda bo‘lib, ularga achinish hissi bilan qaraganlar va sadaqa bersih bilan cheklanganlar. Ko‘zi ojizlar shu qadar nochor va notavon ko‘ringanki, ularni o‘qitih, biror mehnatga yo‘naltirish to‘g‘risida o‘ylab ham ko‘rmaganlar. shu sababli ko‘pchilik nogironlar jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmay qiyinchilikda yashaganlar. Vaqt o‘tgani sari ko‘zi ojizlar o‘z ustida izlandilar, hayot uchun kurashdilar.

Tarixga nazar solsak, Falastin va Misrga qilingan salb yurishlaridan so‘ng urushda ko‘zidan ajralib qaytgan jangchilar uchun 1260-yil Parijda ko‘zi ojizlarni hunarga o‘rgatuvchi muassasa tashkil etilganligi ma’lum bo‘ladi.

1745 – 1822-yillarda yashab o‘tgan ko‘zi ojizlar ta’lim-tarbiyasining asoschisi Fransiyalik tiflopedagog Valentin Gayui 1749-yilda Fransuz ma’rifatchisi va faylasufi Deni Didro tomonidan yozilgan “Sog‘lomlarga ko‘zi ojizlar haqida” noma asarini o‘qib qattiq ta’sirlandi. Ushbu asarda ko‘zi ojizlarning o‘qishga bo‘lgan qobilyatlari yoritilgan edi.

Valentin Gayui Frasiyadagi ko‘zi ojizlarning g‘arib ahvoliga qattiq achinib, uning o‘zi ko‘zi ojiz bo‘lmasada, insonparvarlik va ma’rifatparvarlik hissi bilan ular uchun maxsus maktab ochish to‘g‘risida ilk bor tashabbus ko‘rsatdi.

Valentin Gayui 1784-yilda hukumat va biror homiylar yordamisiz o‘z mablag‘i hisobiga uyida ko‘zi ojizlar uchun maktab ochdi. U cherkovda uchratgan Fransua-De-Lazyuer ismli ko‘zi ojiz bolakayni birinchi o‘quvchi sifatida maktabga olib keldi. Songra, 11 nafar qarovchisiz qolgan bolalarni maktabga jalb qildi. Izlanuvchan pedagog ko‘zi ojiz bolalar ta’lim-tarbiyasiga ilmiy yondashib, maxsus alifbo ishlab chiqdi. Uning harflari bir unsiya uzunlikda bo‘lib, “Unsial”[2] deb nomlandi. Unsial harflari qalin, zich qog‘ozga bo‘rttirib tushirilgan bo‘lib, Gayui so‘z tuzish uchun lotin alifbosidagi qirqma harflardan foydalandi. Qalin qog‘ozlarga bo‘rttirib yozib, shakli qirqib olingan. Bu harflar sog‘lom kishilar uchun ham tushunarli bo‘lgan. Shuningdek, harfalr o‘rnini bemalol almashtirish mumkin bo‘lar, ko‘zi ojizlarga zarur matnni tuzishda qo‘l kelardi. Bu harflar doskaga o‘yib ishlangan maxsus katakchalarga joylashtirilar, bu esa barmoqlar yordamida harflarni tanish va bir-biridan ajratish uchun juda qulay edi. Bundan tashqari, Gayui ko‘zi ojizlar uchun o‘quv qo‘llanmalar, geografik harita va globuslar tayyorlashga mo‘ljallangan maxsus asobob, qoliplar ishlab chiqdi. Bu hunarni o‘quvchilarga ham o‘rgatdi.

Valentin Gayui “Ta’lim olmagan ko‘zi ojizning ongi mavhum va betartib tasavvurlardangina iboratdir”[3] degan g‘oyani ilgari surib, ilk bor ko‘zi ojizlar uchun kitob yaratish zarurligi to‘g‘risida fikr bildiradi. Iqtisodiy ahvoli qiyin bo‘lsada u maktab qoshida maxsus bosmaxona quradi va “Unsial” yozuvida ko‘plab kitoblar chop etadi. Jumladan: “Ko‘zi ojiz bolalarni tarbiyalash haqida” risola, “Fransuz tilining qisqacha grammatikasi”, “Lotin tili grammatikasi” kabi o‘quv qo‘llanmalar. Ko‘zi ojizlar ushbu kitoblardan 6 nuqtali “Brayl” yozuvi kashf etilgunga qadar foydalandilar.

---

[1] PQ-209-sonli “Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta’lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 1-bandi, 18.04.2022, www.lex.uz

[2] Valentin Gayui tomonidan ishlab chiqilgan ko‘zi ojizlar uchun maxsus yozuv

[3] S. Dangalov, Tiflopedagogika tarixi va uning ahamiyati, Toshkent – 2010, 16-bet

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

Gayui o‘z faoliyati jarayonida asosiy e’tiborni musiqa ta’limiga qaratdi. U o‘quvchilarga Klavesin, Klavekord, Fortepiano kabi cholg‘ularni chalishni va xorda kuylashni o‘rgatdi.

Valentin Gayui uy sharoitidagi ushbu maktab faoliyatining uzoq davom eta olmasligini yaxshi bilgan holda bunga yechim izladi. Fidokor o‘qituvchi jamoat joylarida: Parij akademiyasi a’zolari huzurida, xayriya tashkilotlarida, xattoki, ko‘chalarda ham o‘z o‘quvchilarining yutuqlarini targ‘ib qila boshladi. Targ‘ibotdan tushgan mablag‘ni Sanviktor kochasida joylashgan Parij qirollik insitutining eski binosida 30 o‘rinli maktab ochish uchun sarfladi. Bu bino keyinchalik kozi ojizlar nilliy insitutiga aylantirildi va 120 nafar talabasi davlat stipendiyasini ola boshladi.

Gayui insoniyat tarixida ilk bor ko‘zi ojizlarning ham sog‘lom insonlar qatori aqliy va jismoniy mehnatga layoqatli ekanliklarini isbotlab berdi.

Biroq, 1800-yilda Napaleon buyrug‘iga ko‘ra ko‘zi ojizlar insituti yopib qo‘yildi. Davlat mablag‘ini iqtisod qilish bahonasida yopilgan bu insitutning talabalari esa turli cherkovlarga va hayriya tashkilotlariga yuborildi. Bu xabar tez orada Rossiyaga yetib bordi.

Aleksandr I Gayuining o‘z vazifasidan ozod etilganini eshitib, uni Sank-peterburgga taklif qildi va u yerda ko‘zi ojizlar insituti tashkil etishda yordam berishini so‘radi. Bu haqidagi habarlar butun germaniyaga ham tarqaldi. So‘ngra, Prussiya qiroli Fridrix Velgelm III shaxsan xat yozib, Gayuini Shrolo-tenburg shaxriga, Berlin fanlar akademiyasi esa o‘z ilmiy kengashiga taklif etdilar. Gayui bu takliflarning barchasiga rozilik bildirdi. Afsuski, bu takliflarni qo‘llab-quvvatlanishi taklif beruvchilar tomonidan mas’ulyatsizlik bilan qaraldi. Gayui Prussiyaga kelib ko‘zi ojizlar insitutini 1806-yil 13-oktabrda ochishga muvaffaq bo‘lgan Iogann Avgust Seyn bilan uchrashdi. Keyin esa, Peterburgga bordi. Vaziyat u o‘ylagandek bo‘lmadi. Chunki, Aleksandr I uni o‘z huzuriga qabul qilmadi. Bu yerda ko‘zi ojizlar insituti tashkil etish uchun o‘quv binosida kerakli shart-sharoitlar yaratilmagan, talabalar ro‘yxati ham shakllantirilmagan edi. Shu kabi ishlarni Gayui o‘z mehnati bilan bir yil davomida amalga oshirib, ko‘zlangan natijaga erishdi. Bu yerda ko‘zi ojizlar “Gayui dasturi” asosida tahsil olardilar. Sahiy ustoz o‘quvchilarining nonushta va tushliklarini o‘z hisobidan berardi.

1807-yil 12-mart kuni katta yoshli ko‘zi ojizlar insituti rasman tashkil etildi va 25 nafar talabalar tarkibi tasdiqlandi. Shu yilning 5-mayida savdogar Ramensovning Vasilev orolidagi uyini shu insitut uchun o‘quv binosi sifatida taklif qilidilar. Gayui Peterburgda o‘ziga hamfikr bo‘lgan insonlarni topdi. Masalan: pedagogika insituti talabasi Galich ko‘zi ojiz talabalarga o‘qish va yozish grammatikasidan saboq berdi. Gayui insitutga ko‘proq o‘quvchi jalb qilishni istardi. Cherkovlardan o‘quvchi olish man etib qo‘yildi. Gayui gazetalar orqali e’lon bera boshladi va qisman natijaga erishdi. Shunday qilib, Sank-peterburgda ko‘zi ojizlar insitutiga asos solindi.

1817-yilda Gayui parijga qaytib keldi. sobiq ko‘zi ojizlar insitituti xudojo‘ylar maskaniga aylantirilgan edi direktor Gilye Gayuini bu yerga kiritmadi. Sababi shuki, Gilye “Muassasa tarixi” nomli bo‘rtma harflarga asoslangan kitob chop ettirgan bo‘lib, bu kitobda Fransiyada ko‘zi ojizlar maktabi tashkil etilishini boshqa shaxslarga bog‘lagan bo‘lib, Gayui nomini umuman tilga olmagan edi.

1822-yil 19-martda Valentin Gayui vafot etdi va Fransiyadagi Per-La-shal qabristoniga dafn etildi. 1855-yil Parij badiiy ko‘rgazmasida uning xotirasiga oid yodgorlik loyihasi namoyish etildi. 1861-yil 10-avgustda bronzadan ishlangan ushbu haykalning tantanali ochilish ma’rosimi bo‘lib o‘tdi. Ma’rosimda Gayuining Belgiyadan kelgan shogirdi Aleksandr Rodenbaxning chiqishi barchaga manzur bo‘ldi. Gayuining mashaqqatli mehnati Belgiyaliklar farovonligi

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

yo‘lida xizmat qilayotgan ushu deputat darajasiga erishgan shogirdning faoliyatida namoyon bo‘ldi.

1883-yil 15-yanvarda “Valentin Gayui” jurnalining ilk soni nashrdan chiqdi. Jurnal tashkilotchisi Moris-de-lya Sizeran ko‘zi ojizlarning hayotini yaxshilashga qaratilgan Valentin Gayui jamiyatiga ham asos soldi. 1884-yil 14-martda Gayui ochgan ilk ko‘zi ojizlar maktabining 100 yilligi keng nishonlandi.

Bugungi kunda Gayui ixtiro qilgan “Unsial” yozuv usulidan ko‘zi ojizlar uchun geometrik shakllar, chizmalar, geografik xaritalarni tasvirlashda keng foydalanilmoqda.

Muhokama va natijalar:

Ayni paytda jahon miqiyosida ko‘plab ko‘zi ojizlarni o‘qitish uchun nafaqat maxsus maktablar, balki, kollej va institutlar ham mavjud. Respublikamizda 17 ta ana shunday maktab-internatlar, 2 ta kasb-hunar kollejlari faoliyat yuritadi. Ushbu muassasalarda Brayl yozuvi ko‘zi ojiz o‘quvchi va talabalarga o‘rgatiladi. Biroq, Brayl yozuvining tarixi, uning asoschisi, undan avvalgi mavjud bo‘lgan yozuvlar hamda ko‘zi ojizlarning ta’lim-tarbiyasini rivojlantirishda o‘z hissasini qo‘shgan fidoiy pedagoglar to‘g‘risida deyarli o‘rgatilmaydi. Chunki, darsliklar ta’lim tizimida faqat sog‘lom bolalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Brayl yozuviga o‘girilgan. Natijada bunday darsliklar ko‘zi ojiz bolalarning ta’lim-tarbiyasini to‘laqonli amalga oshirishda talab darajasida emas. Vaholanki, ko‘zi ojizlar alohida ta’limga ehtiyoj sezar ekan, ularni har tomonlama yuksaltirish uchun o‘z tarixini o‘rgatish va jamiyatdagi o‘rnini anglatish lozim. Buning uchun o‘qitiladigan har bir fan maxsus korreksion metodlarga ega bo‘lishi zarur.

Xulosa o‘rnida ta’kid o‘rinliki, bugungi kunda Valentin Gayuidek fidoiy ustozlar juda kam. Ular ko‘zi ojizlik dardini his qila olmaganliklari va o‘z kasbiga psixologik, tiflometodik yondoshmayotganliklari, bu borada o‘z ustida ishlamasliklari ko‘zi ojizlar ta’limini qiyinlashtirmoqda. Ularga ibrat uchun Valentin Gayui va Lui Brayl kabi ma’rifatparvarlarning pedagogik faoliyatini malaka oshirish kurslarida chuqur o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 PQ-209-sonli “Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta’lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 1-bandi, 18.04.2022, www.lex.uz

2. S. Dangalov, Tiflopedagogika tarixi va uning ahamiyati, Toshkent – 2010.

3. F. Boynazarov, Jahon adabiyoti, T – “Musiqa”, 2006.

4. N.T. Yaqubova, Maxsus pedagogika va tiflopedagogika, ma’ruzalar matni, T – 2002.

5. R.P. Ermakov, G.A. Yakunin, Тифлопедагогики, Москва – 2000 г.

6. D. Sultonova, Tiflopedagogika, maruzalar matni T – 2005.